

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA KOMIL INSON
G’OYALARI TALQINI

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o’g’li

FarDU adabiyotshunoslik kafedrasi o’qituvchisi

Qurbonov Abbasjon Ikromjon o’g’li

FarDU 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” si, undan o’rin olgan “Farhod va Shirin” dostoni tahlili va komil inson haqidagi fikrlar bayon qilingan. Dostondagi Farhod obrazi xarakteri, uning dostonida tutgan o’rni va timsoli yoritilgan. Navoiyning Farhod obrazi orqali nafsni boshqarish, ishq orqali Haqqa yetishish orzusi kabi insonni komillik darajasiga yetkazadigan eng ulug’ insoniy fazilatlar yoritib berilgan. Farhod oliyjanob, mehnatsevar va vatanparvarlik ruhida ulg’ayish bilan birga chin ma’nodagi inson sifatida tasvirlanadi.

KALIT SO’ZLAR: komil inson, ishq, siyrat, vatanparvarlik, botiniy, zohiriy, Xamsa, obraz, Firdavsiy, Xusrav, mehnatsevarlik.

XV asrga kelib xamsachilik an’anasi yanada keng tus oldi. Bu davrda ikkita buyuk xamsanavis yetishib chiqdi. Ulardan biri Abdurahmon Jomiy bo’lsa, ikkinchisi buyuk Alisher Navoiy edi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni Nizomiy va Xusrav Dehlaviy dostonlariga o’xshamagan alohida bir original asar yozish istagi bo’lganligini e’tirof etishgan. Navoiy dostonining nomlanishi, Farhodning birinchi, Xusravning ikkinchi darajali qahramon sifatida berilishi, asar syujetiga kiritilgan jiddiy o’zgarish bo’ldi. Hamda uning mazmuni chuqurlashgani va natijada dostonning mohiyati chuqurlashganini ko’rishimiz mumkin. Shubhasiz Farhod va Shirin Navoiy “Xamsasi” ning eng yuksak cho’qqisidir. Farhod va Shirin — turkiy xalqlar adabiyotlarida an’anaviy mazmunga ega bo’lgan va bir necha ijodkorlar tomonidan qalamga olingan ishqiy qissa va dostonlardan birining nomi. Shirin va Farhod fors-tojik adabiyotida X-XI asrlardan boshlab Abulqosim Firdavsiyning „Shohnoma“, Nizomiy Ganjaviyning „Xusrav va Shirin“, Xusrav Dehlaviyning „Shirin va Xusrav“, o’zbek shoiri Qutbning „Xusrav va Shirin“ dostonlarida eng fidoyi oshiq va ma’shuqalar sifatida tasvirlangan. Alisher Navoiy Sharqda bu an’anaviy ishqiy qissani qayta ishlab, uni yangidan shakllantirgan, Farhod va Shirinni dostonning bosh qahramonlari sifatida tasvirlagan va unga „Farhod va Shirin“ deb nom qo’yan. Navoiy yigitlik davrida „Topmadim“ radifi bilan yozgan g’azallarining birida yoshligida o’zi qayta-qayta o’qib, diliga jo qilgan dostonlar to’g’risida so’z yuritadi, unda shunday bir rivoyat bor, “Ko’p o’qudum Vomiq-u, Farhod-u, Majnun qissasin, O’z ishimdin bul ajabroq dostone topmadim”. Demak, Navoiy yoshligidan boshlab mashhur oshiq va ma’shuqalar, shu jumladan, Farhod, Shirin haqidagi qissalarni ko’p va qayta-qayta o’qigan. Shu bilan birga, bu dostonlar vaqt o’tishi bilan uning shaxsiyati, shaxsiy his tuyg’ulari ila birlashib ketgan va ko’nglida Farhod va Shirin haqida butunlay yangi bir doston g’oyasi shakllana boshlagan. Bu ijodiy reja esa 1483-1484-yillarda amalga oshirilgan. Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostoni u yaratgan „Xamsa“ ning ikkinchi dostoni bo’lib, unda Farhod oddiy tosh yo’nar oshiq emas, balki

xoqonning o'g'li, aniqrog'i, Xo'tan mamlakati podshosining qarilikda ko'rgan yakkayu yagona farzandi bo'lib, yoshligidan fanning barcha sohalariga qiziqqan, harbiy bilimlarni, ayniqsa, toshyo'narlik, kasbini egallashga uringan. Farhod shunday yuksak zehn va qobiliyatga ega bo'lganki, uch oyda "Qur'oni Karim"ni yod olgan, olti oyda savodi chiqqan. U Shirinni otasi xazinasidagi sehrli oynada ko'rib, darhol sevib qoladi. Unga erishish uchun turli mashaqqatlarni boshidan kechiradi. U Arman elida Shirin uchun qazilayotgan ariqni bitkazish ishlarida o'zining nimalarga qodir ekanini ko'rsatadi. Armaniyaliklar uch yildan beri qazib, suv chiqara olmagan ariqlaridan Farhod bir kunda suv chiqarib beradi. Ammo bosqinchi Eron hukmdori Xusrav bilan kurashda xiyla bilan qo'lga olinib, qahramonlarcha halok bo'ladi. Farhod bu foniy dunyoni tark etar chog'ida ham o'zining yetkazgan ozori uchun tog'-u toshlardan, daryo-yu dengiz, bog'-u rog'lardan kechirim so'raydi. Uning sevgilisi Shirin ham Farhodning o'lganini eshitib bunga chidolmay, uning jasadi ustida jon beradi...

Dostonning bosh qahramoni Farhoddir. Shoir e'tiroficha, u ham Xusrav Dehlaviyda bo'lganidek, Farhodni Chin xoqonining o'g'li sifatida tasvirlaydi. Shunisi muhimki, xoqon oilasida dunyoga kelgan Farhodga nom qo'yish masalasiga shoir alohida e'tibor berib, shu nomni talqin qilishda, Farhodning tug'ilishini kelajakdagi komil insonning tug'ilishi sifatida sharhlaydi. Alisher Navoiy Farhod va Shirin kabi komil insonlarning baxtli bo'lishi, orzu-istaklariga erishishi uchun shart bo'lgan omil – bu odil podshohning o'qimishli, ilmi bo'lishi lozim deb biladi, ya'ni komil insonning maydonga kelishi uchun komil sharoit ham, ya'ni Farhodkush zamona – sharoit emas, balki Farhodparvar zamona – sharoit darkorligidan so'z yuritadi. Xuddi shuni nazarda tutib, zamondoshlari bo'lgan tarixiy shohzodalarga murojaat qilib, ular shoh bo'lgach, shunga amal qilishlari lozimligini istardi. Farhodning mukammal epik obrazini Navoiy yaratgan. Navoiy Farhod obrazi orqali ideal inson haqidagi gumanistik qarashlarini ifodalab, eng yuksak insoniy fazilatlarni madh etgan.

Alisher Navoiy tomonidan olib kirilgan yangi mavzular katta silsilani tashkil etadi. Navoiy Farhodning mehnat va ijodkorlikda erishilgan muvaffaqiyatlarning asosiy boisi uning ilmi, aqli va irodasi deb hisoblaydi. Farhod aql va tafakkur kuchiga baho berar ekan:

Dedi: har ishki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod.

Ulum ichra manga to bo'ldi madxal,

Topilmas mushkule men qilmagan hal.

Adabiyotda yaratilgan qahramonlar orasida Farhod obrazi Navoiyni butun ijodi davomida to'liqlantirib keldi. Buyuk Navoiyning xizmatlari shundaki, dostonni yaratishda o'z idealini faqat Farhod siyomosidagina emas, ayol zotining barcha go'zalliklarini, jasoratini, pok sevgisini o'zida mujassamlashtirgan Shirin obrazini hayotiy, jitmoyiy, ma'naviy timsolini yaratadi. Navoiy obrazlarni tayyor holda bermaydi. Farhod va Shirin obrazlari voqeaning o'zi bilan birga kurash va to'qnashuvlarda, izlanish va sinovlarda o'sib, kamol topib boradi. Bu birinchi navbatda, dostonning bosh qahramoni Farhod obraziga taalluqlidir. Har bir obraz o'z individual jihatlari bilan dunyoqarashi, maqsadi, kishilarga munosabati, xulq-atvori va tashqi qiyofasi bilan to'la namoyon bo'ladi. Navoiy har bir qahramonlarining zohiriy va botiniy olamini sof insoniy fazilatlar bilan bezab, ularning ma'naviy qiyofasini aks ettirgan.

Tasavvuf – musulmon olamida (mamlakatlarida) keng tarqalgan , butun dunyoda mashhur bo'lgan Islom diniga asoslanuvchi buyuk ta'limot. Tasavvuf orqali insoniyat islom dinining ichki va tashqi go'zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetadi. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma'naviy jihatdan poklash, ya'ni komil insonni tarbiyalashdir

Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma'naviyatli, aqlan va insonan barkamol shaxs komil insondir. Aksariyat adabiyotlarda komil inson ruhiy poklangan inson tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Demak ruhni poklash zarur. Poklanishning yo'li esa bitta, u nafsni yengishdir. Navoiy ezgulik, sevgi, insoniylikning g'alabasini ana shunday xayoliy tasvirlarda ifodalab, bu tantananing muhaqqaq ekanini ta'kidlaydi.¹

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab' ai Sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlarini o'rganar, tahlil qilar ekanmiz, uni bugungi kun bilan bog'lasak juda to'g'ri bo'ladi. Chunki Navoiy XV asrdayoq yaratgan qahramonlar, Navoiyning ong oqimi va uzoqni ko'ra bilishi bugungi kun kishisini ,albatta, hayratga soladi. Adabiyotshunoslar orasida shunday gap yuradi: „ Mukammal aql-zakovatli, teran fikrli shoir-u yozuvchilar o'zlari yashagan davrdan yuz, ikki yuz, daholari esa hatto besh yuz yil oldin yuradi. O'zlari yaratgan asarlari bilan kelajakni ko'ra oladi”. Ushbu fikrlardan anglashiladiki, Navoiy olim-u daholarning, din arboblarning ham yuksak cho'qqisi bo'lgan. Navoiy yaratgan asarlardan, jumladan, “Farhod va Shirin” dostonida ham o'zi orzu qilgan, qalbida yashagan komil insonni Farhod obrazi orqali ko'rsata oldi. Aslida Navoiyning o'zi komil inson edi. Olimning amalga oshirgan yuksak e'tirofga sazovor ishlari bugungi kundagi biz avlodlar uchun ham ibrat maktabidir. Bugun Navoiy orzu qilgan qahramonlar mustaqillik davrida ham o'zlarining qizg'in ijodida jo'shib davom etmoqdalar. Demak, Navoiyni anglash, u yaratgan asarlari mazmunini o'rganishgina emas, balki bugungi kun qahramonlarining vatanparvarligi, mehnati, bilimi, iste'dodi bilan yuzaga kelgan mo'jizalarni anglash hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bertals Ye.E, Nizomiy va Fuzuliy, M., 1962; Erkinov.S, “Navoiy “Farhod va Shirin” va uning qiyosiy tahlili” T – 1971.
2. Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov “Farhod va Shirin” dostoni haqida.
3. Aziz Qayumov, “Farhod va Shirin sirlari” T- 1979. -168 b.
4. Anvar Hojiahmedov, Vahob Rahmonov, “Xamsa” T-2016. -496 b.